

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**SAITMURATOV SAIMMURAT MASHARIP O'G'LI**

**DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNI REJALASHTIRISH VA  
O'TKAZISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации на соискание ученой степени  
доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Contents of the abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in  
economic sciences**

**Saitmuratov Saitmurat Masharip o‘g‘li**

Davlat sektorida ichki auditni rejalashtirish va o‘tkazish jarayonlarini  
takomillashtirish..... 3

**Саитмуратов Саитмурат Машарип ўғли**

Совершенствование процессов планирования и проведения  
внутреннего аудита в государственном секторе..... 29

**Saitmuratov Saitmurat Masharip ugli**

Improving internal audit planning and conduct processes in the public  
sector..... 59

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**SAITMURATOV SAIMURAT MASHARIP O'G'LI**

**DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNI REJALASHTIRISH VA  
O'TKAZISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.2.PhD/Iqt5493 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatkulov Murodjon Shukurovich**  
iqtisodiyot fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Maxsudov Begmatjon Yo'ldashaliyevich**  
iqtisodiyot fanlar doktori, professor

**Alikulov Abdimo'min Ismatovich**  
iqtisodiyot fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 2 » 12 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 17 » 11 kuni tarqatildi. (2025 yil « 17 » 11 dagi 102 raqamli reestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida davlat sektorida ichki auditni rejalashtirish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish va shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yondashuvlar asosida audit rejalarini xavf-xatarlarga tayanadigan usullarda ishlab chiqish, ichki nazorat tizimini baholash va auditorlik jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish davlat sektorida hisobdorlik va samaradorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, audit natijalarini tahlil qilish va ularni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llash resurslar taqsimotini optimallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirish imkonini yaratadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, "davlat sektorida ichki auditni takomillashtirish davlat boshqaruvida shaffoflik va jamoatchilik ishonchini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi"<sup>1</sup>. Bundan ko'rinadiki, davlat sektorida ichki audit jarayonlarini takomillashtirish jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish va samarali boshqaruvning kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon miqyosida davlat sektorida ichki auditni rejalashtirish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlari, avvalo, davlat mablag'laridan samarali foydalanish va hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan. Ilmiy izlanishlarda xavf-xatarlarga asoslangan audit rejalarini ishlab chiqish, ichki nazorat tizimini baholash va audit jarayonlarini raqamli texnologiyalar bilan avtomatlashtirish masalalari muhim yo'nalish sifatida qayd etilmoqda. Shuningdek, tadqiqotlar audit samaradorligini oshirish maqsadida blokcheyn va sun'iy intellekt kabi innovatsion yechimlarni joriy qilish, davlat idoralari faoliyatini monitoring qilishda real-time ma'lumotlar tahlilidan foydalanish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yo'llariga alohida e'tibor qaratmoqda. Xorijiy amaliyotda esa davlat sektorida ichki auditning shaffoflik, samaradorlik va jamoatchilik ishonchini ta'minlashdagi roli hamda xalqaro standartlarga uyg'unlashuvi alohida ustuvor yo'nalish sifatida tadqiq etilmoqda.

O'zbekistonda davlat sektorida ichki auditni rejalashtirish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida belgilangan vazifalar, avvalo, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash hamda davlat resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Shu yo'nalishda ichki auditning huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashtirildi, xavf-xatarlarga asoslangan audit rejalarini ishlab chiqish tizimi joriy etildi va davlat idoralarida ichki nazorat mexanizmlarini baholash amaliyoti kengaytirildi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va auditorlik jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ma'lumotlarni tahlil qilish samaradorligi oshirildi, bu esa davlat moliyaviy boshqaruvida zamonaviy instrumentlarni keng qo'llash imkonini yaratdi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar (INTOSAI va COSO) talablariga uyg'unlashtirilgan milliy yo'riqnomalar ishlab chiqilishi natijasida ichki audit jarayonlarining sifatini oshirish va uning natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol foydalanish imkoniyati yaratilgan. O'zbekiston sharoitida ichki auditning ahamiyati eng avvalo korrupsiyaga qarshi

---

<sup>1</sup> OECD, Internal Audit in the Public Sector: A Comparative Analysis, OECD Publishing, Paris, 2020. DOI: <https://doi.org/10.1787/26c21f80-en>

kurashish, davlat boshqaruvida hisobdorlik va mas'uliyatni oshirish zarurati bilan izohlanadi. Hozirgi paytda davlat tashkilotlarida ichki audit jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va ulardan kelib chiqadigan tavsiyalarni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois, ichki audit tadbirlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investisiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-son "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", 2022-yil 1-avgustdagi 416-son "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga joriy etishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Davlat sektorida ichki audit tizimini tashkil etish va uni takomillashtirish masalasi jahon va milliy miqyosda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, xalqaro miqyosda G.Spenser, R.Moizer, A.Ridley, D.Flint, T.Sawyer, L.Flesher, N.Henning, M.Tabor, J.Pickett va E.Arens kabi yetakchi olimlar ichki auditning nazariy asoslari, mustaqillik, ob'ektivlik va strategik maslahat funksiyalari haqida fundamental izlanishlar olib borganlar<sup>2</sup>. Ularning tadqiqotlarida ichki auditni faqat moliyaviy nazorat emas,

---

<sup>2</sup> Spenser G. Internal Audit and Organizational Governance: Control Strategies for Public Institutions. – London: Routledge, 2014. – 328 p., Moizer R. Audit Quality: Historical Development and Future Directions // European Accounting Review. – 2005. – Vol. 14(3). – P. 383–394., Ridley A., Chambers A. Leading Internal Audit: The Value Proposition. – London: IIA-UK, 2008. – 260 p., Flint D. The Conceptual Framework of Auditing. – London: International Federation of Accountants (IFAC), 1998. – 184 p., Sawyer L.B. Sawyer's Internal Auditing: Enhancing and Protecting Organizational Value. 6th ed. – Altamonte Springs, FL: Institute of Internal Auditors, 2012. – 792 p., Flesher D.L. Internal Auditing: History, Evolution and Current Practice. – New York: The Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2010. – 367 p., Henning N. Internal Control and Risk Management in the Public Sector. – Amsterdam: Elsevier, 2011. – 210 p., Tabor M.W. Principles of Government Auditing. – Washington, D.C.: GAO Press, 2005. – 274 p., Pickett K.H. The Internal Auditing Handbook. 3rd ed. – Chichester: Wiley, 2010. – 704 p., Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 16th ed. – Boston: Pearson, 2016. – 840 p.

balki tashkilotning strategik boshqaruvi va risklarni boshqarish tizimining muhim elementi sifatida qarash zarurati alohida ta'kidlangan.

Rossiya olimlaridan V.I.Bogatyeryova, N.D.Brovkina, A.Yu.Busheva, A.A.Teplyakov, I.Yu.Nikonova, N.I.Vakulenko, G.I.Lipakov, E.V.Tretyakova, N.V.Truxina va A.L.Kolesnik kabilar davlat sektorida ichki audit xizmatlarini tashkil etish, uning institutsional va tashkiliy asoslari, xavfga asoslangan rejalashtirish va nazorat faoliyatini baholash mezonlari bo'yicha kompleks yondashuvlar ishlab chiqishgan<sup>3</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan N.B.Abdusalomova, K.B.Axmedjanov, R.D.Dusmuratov, Sh.V.G'aniyev, A.K.Ibragimov, S.U.Mehmonov, A.A.Ostonaqulov, A.R.Suvankulov, B.B.Sugirbayev, Z.U.Xamidova, B.T.Yuldashev va boshqalar ichki auditning milliy modelini yaratish, uni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, ichki nazorat muhitini kuchaytirish va davlat tashkilotlarida audit samaradorligini oshirish yo'nalishida e'tiborga molik tadqiqotlar olib borganlar<sup>4</sup>.

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlar davlat sektorida ichki audit tadbirlarini o'tkazishning amaliy bosqichlari – rejalashtirish, algoritmlashtirish, audit tavsiyalarini monitoring qilish, resurslarni xavf asosida taqsimlash, audit metodikasini ob'yekt xususiyatlariga moslashtirish kabi yo'nalishlarni tizimli yoritib berilmagan. Shu sababli, mazkur mavzusidagi tadqiqot ishi mavjud nazariy g'oyalarni takomillashtirish va amaliy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

---

<sup>3</sup> Богатырёва В.И. Государственный внутренний финансовый контроль и аудит: теория и практика. Монография. – М.: Финансы и статистика, 2016. – 304 с., Бровкина Н.Д. Государственный финансовый контроль: современные подходы и направления развития. Монография. – М.: Юрайт, 2018. – 287 с., Бушева А.Ю. Внутренний аудит в государственном секторе: методология и практика. Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2019. – 256 с., Тепляков А.А. Организация внутреннего государственного аудита: инструменты и технологии. Монография. – М.: Экономика, 2015. – 268 с., Никонова И.Ю. Внутренний контроль и аудит в бюджетной сфере: методологические аспекты. Монография. – Воронеж: Научная книга, 2017. – 198 с., Вакуленко Н.И. Развитие системы внутреннего финансового контроля в государственных учреждениях. Монография. – Казань, 2018. – 222 с., Липаков Г.И. Оценка эффективности внутреннего аудита в органах государственной власти. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2020. – 248 с., Третьякова Е.В. Методология государственного внутреннего аудита: зарубежный опыт и российская практика. Монография. – СПб., 2016. – 233 с., Трухина Н.В. Системный подход к развитию внутреннего аудита в органах власти. Практико-ориентированная монография. – М.: Магистр, 2021. – 216 с., Колесник А.Л. Внутренний аудит в бюджетных организациях: организационно-правовые основы и технологии. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2019. – 240 с.

<sup>4</sup> Абдусаломова Н.Б., Шарапова М.Т. Бюджет ташкилотларида иш ҳақидан солиқ ва мажбурий ушланмалар ҳисоби ҳамда ички аудитини такомиллаштириш. Образование наука и инновационные идеи в мире. 2024. 54(4), 90-97 б., Аҳмеджанов К.Б. Давлат молиявий назорати ва аудит тизимини такомиллаштириш. Монография. – Т.: Fan va texnologiya, 2019. – 230 б., Дўсмуротов Р.Д. Бюджет жараёнида ички аудитнинг ўрни ва аҳамияти. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisodiyot, 2018. – 192 б., Ғаниев Ш.В. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш (таълим тизими мисолида). и.ф.н. илм. дар. олиш учун ёзил. дис. автореф. – Т.: 2008. – 26 б., Ибрагимов А.К., Сугирбаев Б.Б. Бюджет назорати ва аудити. Ўқув қўлланма. infoCOM.uz МЧЖ. – Т.: 2010, 192 б., Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2018. – 74 б., Остонақулов А.А. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш. Монография. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2021, 208 бет., Суванкулов А.Р. Развитие службы внутреннего аудита государственного сектора Узбекистана //Россия: тенденции и перспективы развития. – 2023. – №. 18-2. – С. 125-131., Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2021. – 182 б., Юлдашев Б.Т. Организационно-правовые основы учёта и внутреннего аудита внебюджетных средств в бюджетных организациях //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 6-2 (151). – С. 47-51.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishining mavzusi Toshkent davlat agrar universitetida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishlari bilan bog'liq va ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat sektorida ichki audit tadbirlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat sektorida ichki audit tizimining mazmuni, funksiyalari va institutsional xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish;

ichki audit tizimining rivojlanish bosqichlari va xalqaro tajribadagi ilg'or yondashuvlarni o'rganish hamda ularni O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirish;

davlat sektorida ichki audit faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladigan mavjud uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish va ularning samaradorlik darajasini baholash;

"Aloqa va hisobdorlik chizig'i" modeli asosida ichki audit xizmatining tashkiliy va institutsional o'rnini belgilovchi konseptual yondashuvni ishlab chiqish;

ichki audit resurslarini samarali taqsimlash maqsadida to'rt o'lchamli xavf segmentatsiyasi va baholash modelini ishlab chiqish;

ichki audit samaradorligini baholash uchun indikatorlar tizimi va reyting baholash metodikasini ishlab chiqish;

O'zbekistonda ichki auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** bo'lib O'zbekiston davlat sektorida budget tashkilotlaridagi ichki audit faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** davlat sektorida ichki audit tadbirlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli tahlil, taqqoslash, monografik o'rganish, ekspert baholash, matematik modellashtirish, grafik va jadvaliy tahlil, hamda eksperimental yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ichki auditorlik faoliyatining boshqaruv tuzilmasidagi aloqadorlik va hisobdorlik munosabatlari davlat boshqaruvi tizimida ichki auditning funksional mohiyatiga strategik maslahatchi sifatidagi tizimli yondashuv asosida takomillashtirilgan;

davlat sektorida audit resurslarini samarali yo'naltirishni ta'minlash maqsadida to'rt o'lchovli xavf indeksi bo'yicha ob'yektlarni ustuvorlik darajasiga ko'ra segmentlash imkonini beruvchi yondashuv orqali yuqori xavf darajasiga ega ob'yektlarni audit qamroviga ustuvor tarzda jalb qilish, resurslarning maqbul taqsimoti va ichki audit samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

ichki audit tadbirlarini o'tkazishda jarayonning tizimliliigi, izchilligi va funksional to'liqligini ta'minlovchi yetti bosqichli algoritmik model orqali audit faoliyatining hujjatlashtirilganlik, aniqlik va izchillik darajasini ta'minlash taklifi asoslangan;



audit tavsiyalarining amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida "ijro kartasi" va monitoring jadvaliga asoslangan tizimli nazorat yondashuvi orqali audit xulosalari ijrosining "real time" monitoringini yo'lga qo'yish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ichki audit hisobotlarini yagona strukturada shakllantirish, unda dalillar, tavsiyalar, ularning muddatlari va monitoring mexanizmlarini belgilash amaliyotini joriy etish tavsiya qilingan;

"Ijro kartasi" va "monitoring jadvali" orqali tavsiyalar bajarilishini muntazam kuzatish tizimini yaratish tavsiya etilgan;

xalqaro ilg'or tajribalarning tizimli tahlili asosida O'zbekiston ichki audit tizimidagi institutsional nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha mintaqaviy moslashuvchan model ishlab chiqilgan;

ichki audit tadbirlarini algoritmlashtirish orqali audit faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirishning uslubiy modeli taklif etilgan;

audit dalillarining ob'yektivligini oshirish maqsadida hujjatli tahlil, kuzatuv va suhbat asosida tuzilgan strukturalashtirilgan triangulyar metodika ishlab chiqilgan;

audit usullarini tanlashda ob'yektning huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xususiyatlariga mos keluvchi "uyg'unlik matritsasi" modeli taklif qilinib, metod tanlashda ilmiy asos yaratilgan;

audit xizmatining faoliyat samaradorligini ob'yektiv baholash imkonini yaratish uchun natijadorlik, foydalanuvchi ehtiyoji va boshqaruvga ta'sir ko'rsatkichlariga asoslangan KPI indikatorlari tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanganligi hamda xulosa va takliflarning tegishli vazirlik, idoralar va tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosa va tavsiyalardan davlat sektorida ichki audit tizimini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslab berish, ichki auditning institutsional mohiyati, asosiy funksional yo'nalishlari hamda xalqaro tajribalarni tahlil qilish, milliy amaliyotga moslashtirilgan yondashuvlarni tizimli ravishda ko'rib chiqish, ichki auditni davlat moliyaviy boshqaruvida strategik boshqaruv vositasi sifatida shakllantirishga qaratilgan ilmiy g'oyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan davlat tashkilotlarida ichki audit xizmatlarini samarali tashkil etish, riskka asoslangan audit rejalashtirish tizimini amaliyotga tatbiq etish va audit samaradorligini baholash usullarini qo'llash, ichki audit faoliyatida aniqlik, hisobdorlik va strategik ahamiyat darajasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

ichki auditorlik faoliyatining boshqaruv tuzilmasidagi aloqadorlik va hisobdorlik munosabatlari davlat boshqaruvi tizimida ichki auditning funksional mohiyatiga strategik maslahatchi sifatidagi tizimli yondashuv asosida takomillashtirilish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 12-iyundagi 05-09/01-11/3068-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etish natijasida ichki audit boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol axborot manbaiga aylanishi ta'minlangan va uning strategik funksiyasi amaliy jihatdan kuchaytirilishiga olib kelgan;

davlat sektorida audit resurslarini samarali yo'naltirishni ta'minlash maqsadida to'rt o'lchovli xavf indeksi bo'yicha ob'yektlarni ustuvorlik darajasiga ko'ra segmentlash imkonini beruvchi yondashuv orqali yuqori xavf darajasiga ega ob'yektlarni audit qamroviga ustuvor tarzda jalb qilish, resurslarning maqbul taqsimoti va ichki audit samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 12-iyundagi 05-09/01-11/3068-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etish natijasida yuqori xavf darajasiga ega ob'yektlar audit qamroviga ustuvor tarzda jalb qilinib, resurslarning maqbul taqsimoti va ichki audit samaradorligining oshishiga erishilgan;

ichki audit tadbirlarini o'tkazishda jarayonning tizimlilik, izchilligi va funksional to'liqligini ta'minlovchi yetti bosqichli algoritmik model orqali audit faoliyatining hujjatlashtirilganlik, aniqlik va izchillik darajasini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 12-iyundagi 05-09/01-11/3068-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etish natijasida ichki audit faoliyatining hujjatlashtirilganligi, aniqligi va izchilligi ortib, tavsiyalar sifati va ularga bo'lgan ishonch darajasi mustahkamlanishiga sabab bo'lgan;

audit tavsiyalarining amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida "ijro kartasi" va monitoring jadvaliga asoslangan tizimli nazorat yondashuvi orqali audit xulosalari ijrosining "real time" monitoringini yo'lga qo'yish taklifi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 12-iyundagi 05-09/01-11/3068-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etish natijasida audit xulosalari ijrosining real-time monitoringi yo'lga qo'yilib, tavsiyalarni bajarish ko'rsatkichi hamda ularning boshqaruvga ta'sir darajasi sezilarli oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 152 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning **“Davlat sektorida ichki auditni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida davlat sektorida ichki audit tushunchasi mohiyati ochib berilgan va uning ahamiyati asoslanilgan, davlat sektorida ichki audit tizimini tashkil etishning uslubiy asoslari tadqiq qilingan, milliy va xalqaro me'yoriy asoslarning o'zaro uyg'unligi keltirib o'tiladi.

Ichki audit davlat boshqaruvi tizimida moliyaviy intizom, samaradorlik va shaffoflikni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizmdir. U faqat moliyaviy hujjatlarni tekshirish yoki aniqlangan xatolarni bartaraf etishdan iborat bo'lmay, balki davlat tashkilotlari faoliyatining barcha bosqichlarida kompleks yondashuvni talab etuvchi tahliliy, maslahat va profilaktik funksiyalarni ham bajaradi. Ichki auditning institutsional mohiyati aynan shu ko'lamli vazifalar va unga berilgan mustaqil maqom orqali namoyon bo'ladi.

Davlat sektorida ichki auditning institutsional maqomi uni boshqa nazorat shakllaridan ajratib turadi. Ichki audit davlat muassasasining tuzilmaviy jihatdan ajralgan bo'limi bo'lib, bevosita tashkilot rahbariyatiga bo'ysunadi. U tashkilotning ichki moliyaviy faoliyati, resurslardan foydalanish jarayonlari, huquqiy muvofiqlik, strategik maqsadlarga erishish darajasi va xavflar tizimini baholaydi. Shu bois ichki audit institutsional yondashuv asosida shakllantirilishi zarur.

Ichki auditning davlat boshqaruvidagi roli moliyaviy tartib-intizomni ta'minlash, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, korrupsion xavflarni oldini olish va qaror qabul qilishda axborot manbai bo'lish kabi bir nechta asosiy funksiyalarga asoslanadi. Ushbu funksiyalar ichida eng asosiylari - bu nazorat, tahlil va maslahat funksiyalaridir. Ichki audit tizimi aynan shu vazifalar orqali davlat tashkilotlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Ichki auditning asosiy funksiyalari<sup>5</sup>

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Nazorat vazifasi orqali ichki audit davlat tashkilotlarida byudjet mablag'larining maqsadli va qonuniy sarflanishini, hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning ishonchliligini va ichki nazorat tizimining ishlash darajasini aniqlaydi. Tahlil vazifasi ichki audit faoliyatining eng kuchli jihatlaridan biri hisoblanadi. Auditorlar tashkilot faoliyatidagi iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy jarayonlarni chuqur o'rganib, ichki omillar, tashqi tahdidlar va risklarni aniqlaydi. Maslahat funksiyasi esa ichki auditning rivojlanayotgan eng zamonaviy jihatlaridan biridir. Bu orqali auditorlar rahbariyatga tashkiliy, moliyaviy va strategik yo'nalishlarda samaradorlikni oshirishga oid takliflar beradi. Ichki auditda ushbu funksiyalar izchil va kompleks tarzda qo'llanilgandagina, u davlat sektorining samaradorligi, ishonchliligi va shaffofligiga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasiga aylanadi.

Uslubiyot doirasida "aloqa chizig'i" auditorning kimlar bilan muloqotda bo'lishini belgilab bersa, "hisobdorlik chizig'i" kimlar oldida uning hisobot berishini ko'rsatadi. Auditorlar faoliyatida "ikki darajali aloqadorlik" prinsipi qo'llaniladi: yuqoridan - rahbariyat bilan strategik muvofiqlashtirish, va yon tomondan - ichki bo'linmalar bilan ma'lumot almashinuvi. Hisobotlar esa faqat rahbariyatga yoki audit qo'mitasiga taqdim etiladi (1-jadval).

### 1-jadval

#### **"Aloqa va hisobdorlik chizig'i" metodologiyasi asosida ichki auditorning funksional strukturasi<sup>6</sup>**

<b>Tashkiliy daraja</b>	<b>Aloqa subyektlari</b>	<b>Aloqa shakli</b>	<b>Hisobdorlik yo'nalishi</b>	<b>Funksional natijasi</b>
Strategik daraja	Tashkilot rahbariyati, audit qo'mitasi	Strategik audit rejalari, risk asosidagi yondashuv	Tashkilot rahbariyati, oliy audit organi	Ustuvor yo'nalishlarni belgilash, rejalashtirishga ta'sir
Operativ daraja	Boshqaruv bo'limlari (moliya, HR, buxgalteriya, yurist va b.)	Ma'lumot so'rash, jarayonlar tahlili, ichki nazorat bahosi	Audit rahbari, audit guruhi	Obyektiv tekshiruv, real tahlil, ishonchli xulosa
Axborot-hisobot darajasi	Audit xizmati rahbariyati	Hisobot tayyorlash, tavsiyalar ishlab chiqish	Tashkilot rahbari, tegishli nazorat organlari	Qaror qabul qilishga asos bo'luvchi hujjatlar
Monitoring-nazorat darajasi	Audit tavsiyalari ijrochilari	Tavsiyalarni ijrosini kuzatish, tekshirish, baholash	Audit xizmati va rahbariyat	Tavsiyalarning bajarilishi, doimiy audit siklining yopilishi
Institutsional muvofiqlik	Normativ-huquqiy bazani yurituvchi organlar	Audit tartiblari, mezonlar va vakolatlar yangilanishi	Oliy audit institutsiyasi, Moliya vazirligi	Ichki audit faoliyatining barqaror me'yoriy asosda yuritilishi

"Hisobdorlik chizig'i" esa ichki audit faoliyatining natijalari asosida tashkilot rahbariyatiga va qonunchilikda belgilangan hollarda yuqori nazorat organlariga

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

rasmiy hisobotlar taqdim etish tartibini belgilaydi. Rossiyada bu holat Byudjet kodeksi va Davlat moliyaviy nazorati to'g'risidagi qonunlar asosida tartibga solinadi.

Mazkur uslubiyotning asosiy maqsadi - ichki audit faoliyatida tashkiliy aloqalarni institutsional tarzda belgilash, ularning huquqiy maqomini mustahkamlash va boshqaruv tizimi bilan muvofiqlashtirilgan axborot oqimini shakllantirishdan iborat. Xalqaro ichki auditorlar instituti o'zining standartida ichki auditorlik xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash uchun bevosita rahbariyat va audit qo'mitasiga hisobot berish tartibini asosiy prinsip sifatida belgilaydi. Bu prinsiplar milliy amaliyotga tatbiq etilishida "aloqa" va "hisobdorlik" chiziqlarini funksional darajada farqlash zaruriyatini tug'diradi.

Davlat sektorida ichki audit tizimini samarali tashkil etishda asosiy muammolardan biri - bu audit tadbirlarini noto'g'ri ustuvorlik asosida rejalashtirishdir. Odatda barcha bo'lim yoki tashkilotlar teng darajada muhim deb qaraladi, natijada auditorlik resurslari tarqoq holda, kam xavfli sohalarga ham behuda yo'naltiriladi. Bu esa audit natijalari samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun audit rejalashtirishda risk indikatorlari asosida segmentlash mexanizmini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Segmentlash deganda tashkilotlar, bo'limlar yoki faoliyat yo'nalishlarini ularning xavf darajasiga qarab tahlil qilish va guruhlariga ajratish tushuniladi. Bu jarayon orqali resurslar eng yuqori xavfga ega sohalarga yo'naltiriladi, auditning ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Xalqaro ichki auditorlar instituti bu yondashuvni "risk asosida audit rejalashtirish" deb ataydi va barcha turdagi ichki audit faoliyatlarida majburiy qo'llanilishini tavsiya qiladi.

Risk indikatorlariga asoslangan yondashuv orqali faoliyat segmentlariga nisbatan to'g'ri baho berish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur yondashuvda tashkilot faoliyatiga ta'sir qiluvchi xavflar bir nechta o'lchamlar bo'yicha baholanadi. Tavsiya etilayotgan to'rt o'lchamli xavf modeli quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Huquqiy xavf - qonunchilikka rioya qilinmasligi, normativ-huquqiy hujjatlarning yo'qligi yoki eskirganligi.

2. Moliyaviy xavf - budjet mablag'larining hajmi, ularning noto'g'ri sarflanish ehtimoli, moliyaviy intizomsizlik.

3. Resurs xavfi - inson resurslari sifati, texnik infratuzilma darajasi, moddiy-texnik ta'minot yetishmovchiligi.

4. Tashkiliy xavf - boshqaruv strukturasi barqarorligi, rahbar almashinuvining chastotasi, ichki nazorat mexanizmlarining mavjudligi.

Har bir o'lcham o'ziga xos indikatorlar orqali baholanadi. Audit ob'yektiga to'rtta o'lcham bo'yicha ball beriladi (0 - xavf yo'q, 1 - past xavf, 2 - o'rta xavf, 3 - yuqori xavf). Ballarning yig'indisiga qarab ob'yekt umumiy xavf darajasi bo'yicha segmentlanadi. Bu yondashuv orqali ichki audit samaradorligini sezilarli oshirish, rejalashtirishga aniqlik kiritish va audit rejalari ustuvorligini asoslash mumkin bo'ladi.

Xavflarni segmentlash va to'rt o'lchamli modelni qo'llash audit resurslarini optimallashtirish, tekshiruv samaradorligini oshirish va riskga asoslangan

boshqaruv tamoyillarini davlat sektorida qarorlar qabul qilishga integratsiyalash imkonini beradi.

Ushbu model yordamida auditorlik xizmati barcha ob'yektlarni obyektiv mezonlar asosida tahlil qiladi va ustuvorlik darajasiga ko'ra audit rejasiga kiritadi. Bu esa auditorlik faoliyatining rejalashtirilishini ilmiy va tizimli asosda olib borishga imkon yaratadi (2-jadval).

**2-jadval**

**To'rt o'lchamli xavf segmentatsiyasi modeli<sup>7</sup>**

<b>Xavf o'lchami</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Asosiy indikatorlar</b>	<b>Baholash mezonlari (0-3)</b>	<b>Ichki auditga ta'siri</b>
<b>Huquqiy xavf</b>	Qonunbuzarlik holatlari, me'yoriy-huquqiy ziddiyatlar, tartibga solinmagan faoliyatlar	Qonunbuzarliklar soni, yuridik bahslar, tartibga solinmagan yo'nalishlar	0 - muammosiz; 1 - kichik nomuvofiqlik; 2 - takroriy xatolik; 3 - jiddiy qonunbuzarlik	Auditorlik tekshiruvini chuqurlashtirish, huquqiy muvofiqlikni o'rganish
<b>Moliyaviy xavf</b>	Budjet mablag'larining noto'g'ri sarflanish ehtimoli, moliyaviy hisobotlardagi nomuvofiqliklar	Mablag' hajmi, moliyaviy hisobotlar sifati, qarzdorliklar, budjet ijrosi	0 - muvofiq; 1 - kichik xatolik; 2 - muhim kamchilik; 3 - yuqori hajmli moliyaviy noto'g'rilik	Moliya oqimlari auditi, byudjet ijrosining chuqur tahlili
<b>Resurs xavfi</b>	Kadrlar sifati va barqarorligi, texnik resurslar darajasi, tizim infratuzilmasi zaifligi	Kadrlar almashinuvi, texnik ta'minot, xodimlar malakasi, texnika-yaratuv resurslar	0 - barqaror; 1 - kichik uzilishlar; 2 - zaif ta'minot; 3 - tanazzul darajasida	Texnik-jarayonli audit, resurslar boshqaruvi va kompetensiya tahlilini chuqurlashtirish
<b>Tashkiliy xavf</b>	Tashkilot strukturasi, ichki nazorat tizimlari va boshqaruvning barqarorligi	Ichki reglamentlar mavjudligi, rahbarlar almashinuv tezligi, boshqaruv vakolatlarining taqsimoti	0 - barqarorlik; 1 - kichik nomuvofiqlik; 2 - murakkablik; 3 - strukturaviy beqarorlik	Boshqaruv tizimini baholash, ichki reglamentlar va vakolat tizimi auditi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 24-oktabrda ro'yxatdan o'tkazilgan Ichki audit milliy standartlarida ichki audit faoliyatining tashkil etilishi bo'yicha yagona yondashuvni ishlab chiqdi. Unga ko'ra, barcha vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari tuzilishi, ularning moliyaviy va tashkiliy mustaqilligi, rahbar tayinlash tartibi, faoliyat mezonlari aniq belgilab berilgan. Shu orqali davlat sektorida ichki audit faoliyati institutsionallashtirilmoqda va amaliy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy vositaga aylanmoqda.


Ichki audit tizimining milliy modelini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish - nafaqat texnik moslashuv, balki metodologik, institutsional va konseptual darajadagi muvofiqlikni talab etadi. Ushbu milliy standartlar O'zbekiston sharoitida audit faoliyatining huquqiy asosini yaratgan bo'lsa-da, ularni INTOSAI

<sup>7</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

va IIA kabi xalqaro standartlar bilan tizimli taqqoslash va sinxronlashtirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu muvofiqlikni ta'minlash orqali audit faoliyati faqat milliy chegaralarda emas, balki xalqaro baholov tizimlariga ham tayangan holda amalga oshiriladi.

Xalqaro va milliy standartlar o'rtasidagi tafovutlar quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: terminologiya va tushunchalar birxilligi, auditning asosiy funksiyalari, mustaqillik va hisobdorlik chiziqlari, riskka asoslangan rejalashtirish mexanizmlari, hujjatlashtirish mezonlari, audit natijalarining baholanishi hamda foydalanuvchi bilan aloqalar sifati. Har bir yo'nalish bo'yicha xalqaro amaliyotdagi yondashuvlar ancha tizimlashtirilgan bo'lib, ularni milliy tizimga o'tkazishda bosqichma-bosqich metodik integratsiya talab qilinadi.

Mazkur ehtiyojni inobatga olgan holda, milliy standartlarni xalqaro standartlar bilan sinxronlashtirishga xizmat qiluvchi 7 bosqichli muvofiqlashtirish algoritmi taklif etiladi. Bu algoritm orqali milliy normativ hujjatlar xalqaro mezonlarga moslashtirilib, auditning sifat va ishonchlilik darajasi oshiriladi (2-rasm).



**2-rasm. Milliy ichki audit standartlarini xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirishning 7 bosqichli algoritmi<sup>8</sup>**

Ushbu algoritm audit tizimiga bozor mexanizmlariga mos, raqamli, riskka asoslangan, moslashuvchan va integratsiyalashgan boshqaruv tamoyillarini kiritadi. Ayniqsa, funksional moslik va huquqiy integratsiya bosqichlari orqali Ichki audit milliy standartlari asosida shakllangan milliy model ISSAI, IPPF, COSO va ISO 19011 kabi xalqaro me'yoriy majmualar bilan parallel rivojlanadi.

Ichki audit jarayonining tizimlashtirilishi davlat sektorida samarali boshqaruvni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Aksariyat davlat tashkilotlarida ichki audit faoliyati hali-hanuz tartibga solingan qat'iy algoritm asosida olib borilmayapti. Natijada, audit ishlari ayrim hollarda faqat shakliy bajaryladi, audit xulosalari umumiy ko'rinishda tuziladi, tavsiyalar esa ijro etilmay qolmoqda.

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Ichki audit jarayoni oddiy tekshiruv emas, balki ma'lumotlar tahlili, risk bahosi, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan strategik nazorat vositasidir. Uni tizimlashtirish orqali har bir audit obyektiga yondashuv yagona standart asosida shakllanadi, subyektivlik bartaraf qilinadi va audit sifati oshadi.

Ichki audit jarayonining har bir bosqichi alohida funksional yuklamaga ega bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi va uzviy ravishda bog'langan tizimni tashkil etadi. Auditning yuqori sifatda o'tkazilishi har bir bosqichning o'ziga xos vazifalariga qat'iy amal qilinishi va ularning izchillikda olib borilishiga bog'liq. Ayniqsa, davlat sektorida - masalan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi (keyingi o'rinlarda-Pensiya jamg'armasi) misolida - o'tkazilgan auditlar amaliyoti har bir bosqichda aniqlik va metodik asos zarurligini ko'rsatadi.

Auditning birinchi bosqichi - rejalashtirish bosqichida, audit obyektlari aniqlanadi, risklar darajasi baholanadi va ustuvorlik tartibi belgilanadi. Masalan, 2024-yilda Pensiya jamg'armasida aniqlangan 11 ta ortiqcha to'lov holati va 7 ta kam ta'minlangan guruhdagi muammo mavjud bo'lgan hududlar, audit rejalashtirishda ustuvor obyekt sifatida belgilangan. Rejalashtirish bosqichida "dinamik rejalashtirish matritsasi" qo'llanilib, audit resurslari samarali taqsimlangan.

Ikkinchi bosqich - tahlil, ya'ni mavjud ma'lumotlar, hujjatlar va oldingi audit natijalari asosida dastlabki xavf bahosi va muammolar zonasi aniqlanadi. Bu bosqichda "takroriy kamchiliklar koeffitsiyenti" asosida obyektlarda yuz berayotgan tizimli xatolar ajratib olinadi. Pensiya jamg'armasining 2023-yilgi yillik hisobotida Namangan va Buxoro viloyatlarida ketma-ket ikki yil davomida bir xil tavsiyalar ijrosining pastligi aniqlangan - bu obyektlar yuqori xavfli zona sifatida belgilanadi.

Uchinchi bosqich - ma'lumot yig'ish. Bu bosqichda asosiy hujjatlar, moliyaviy hisobotlar, intervyular, qayta hisob-kitoblar orqali dalillar to'planadi. Misol uchun, 2024-yil 9 oylik auditda Farg'ona tumanida ortiqcha pensiya to'lovlarini aniqlash uchun 38 ta to'lov hujjati, 12 ta shaxsiy ish jildi va 5 nafar mas'ul shaxs bilan intervyu o'tkazilgan.

To'rtinchi bosqich - xulosa berish. Ushbu bosqichda barcha dalillar tahlil qilinadi va obyekt faoliyatining muvofiqlik yoki nomuvofiqlik holatlari aniq ko'rsatiladi. Audit xulosasida "muammo sababi, oqibati va taklif qilingan yechim" uchlik tamoyili asosida hujjatlashtiriladi.

Ichki audit xizmatlari faoliyatini rejalashtirishda audit resurslarining (xodimlar, vaqt, moliyaviy mablag'lar) cheklanganligi sababli, har bir audit obyektni tanlash oqilona yondashuvni talab qiladi. Bu holatda "xavfga asoslangan yondashuv" tamoyili asosiy metodologik mezon sifatida maydonga chiqadi.

Yillik reja tuzish jarayonida quyidagi tamoyillarga qat'iy amal qilish lozim:

xavfga asoslanganlik - obyektlar faoliyatidagi moliyaviy, huquqiy, boshqaruviy xavflar tahlil qilinadi;

ustuvorlik - nazoratni talab qiluvchi eng muhim yo'nalishlar oldinroq rejalashtiriladi;

davriylik - obyektlar ilgarigi audit davrlariga qarab navbatga qo'yiladi;

ijro monitoringi - avvalgi yillardagi tavsiyalarni bajarish darajasi inobatga olinadi;

moslashuvchanlik - reja yil davomida yuzaga kelgan o'zgarishlarga mos ravishda yangilanadi.



Shuningdek, audit obyektlari faoliyatining tavsiyalar ijrosi darajasi yillik rejalashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki audit jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bu - audit dasturini shakllantirish hisoblanadi.

Davlat sektorida faoliyat yurituvchi tashkilotlar keng ko‘lamli mas’uliyatga ega bo‘lib, ularning har bir faoliyat sohasi turli darajadagi xavf bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu esa audit dasturini oldindan puxta tayyorlashni, ya’ni audit boshlanishidan avval obyekt faoliyatini tavakkalchiliklar kontekstida baholashni talab qiladi.

Audit dasturining samarali bo‘lishi, aynan audit resurslarining qaysi sohalarga qaratilishini belgilashga bog‘liq. Agar bu yo‘naltirish xavf tahliliga tayangan holda amalga oshirilsa, auditorlarning kuchi muhim muammolarni aniqlash va ularni chuqur tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Aks holda, past xavfli yoki auditga muhtoj bo‘lmagan sohalarga e’tibor qaratilib, audit resurslari isrof bo‘lishi mumkin.

### 3-jadval

#### To‘rt o‘lchamli xavf indeksining struktura va tarkibiy mezonlari<sup>9</sup>

Xavf o‘lchami	Sub-indikatorlar	Tavsif	Baholash mezonlari (1-5)
Huquqiy xavf	1. Qonunbuzarlik holatlari soni	So‘nggi 2 yilda aniqlangan rasmiy buzilishlar	0-1: 1 ball, >5: 5 ball
	2. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta‘minlanganlik	Ichki nizomlar, reglamentlar mavjudligi	To‘liq: 1, Yo‘q: 5
	3. Davlat nazorati topilmalari	Nazorat organlarining aniqlagan huquqiy muammolari	Mavjud emas: 1, Jiddiy: 5
Moliyaviy xavf	1. Byudjet hajmi	Audit qilinayotgan obyektning yillik moliyaviy hajmi	<10 mlrd: 1, >100 mlrd: 5
	2. Ortiqcha to‘lovlar summasi	Aniqlangan moliyaviy xatoliklar miqdori	<100 mln: 1, >5 mlrd: 5
	3. Tavsiyalar ijrosi foizi	Avvalgi tavsiyalarni bajarish ko‘rsatkichi	80-100%: 1, <20%: 5
Resurs xavfi	1. Xodimlar yetishmovchiligi	Shtat jadvalidagi bo‘sh ish o‘rinlari ulushi	0-10%: 1, >30%: 5
	2. Texnik ta‘minot darajasi	Kompyuterlar, serverlar, dasturiy vositalar yetarliligi	Yetarli: 1, Yo‘q: 5
	3. Malaka darajasi va sertifikatlar	Auditorlar va hisobchilarning kasbiy tayyorgarligi	100% sertifikat: 1, <50%: 5
Tashkiliy xavf	1. Rahbariyat o‘zgaruvchanligi	So‘nggi 2 yilda rahbar almashtirilgan holatlar	Yo‘q: 1, >2 marta: 5
	2. Ichki nazorat tizimi mavjudligi	Auditdan mustaqil ichki nazorat bo‘linmasi mavjudligi	To‘liq: 1, Mavjud emas: 5
	3. Tashkiliy tuzilma aniqligi	Lavozimlar, vakolatlar aniq taqsimlanganmi	Aniq: 1, Chalkash: 5

Har bir o‘lcham bo‘yicha ballar yig‘indisi olinadi, so‘ngra 20 ballik indeks aniqlanadi (har bir o‘lcham maksimal 5 balldan). Yakuniy indeks quyidagicha baholanadi: 0 - 7 ball - Past xavfli obyekt; 8 - 14 ball - O‘rta xavfli obyekt; 15 - 20 ball - Yuqori xavfli obyekt.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Ichki audit dasturini shakllantirishda qo'llaniladigan to'rt o'lchamli xavf indeksi modeli audit obyektining faoliyatidagi turli tavakkalchiliklarni tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda xavf omillari huquqiy, moliyaviy, resursiy va tashkiliy yo'nalishlar bo'yicha guruhlanadi. Bu model asosida har bir obyekt uchun individual audit dasturi tuzish mumkin bo'lib, bu esa auditning aniqligi va maqsadga yo'naltirilganligini oshiradi.

Modelning asosiy afzalligi shundaki, har bir xavf o'lchami bo'yicha maxsus sub-indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali har bir o'lchamda mavjud xavflar raqamli baholashga o'tkaziladi. Baholash 1 dan 5 gacha bo'lgan ball tizimi asosida amalga oshiriladi: 1 ball - past xavf, 5 ball - yuqori xavf. Har bir o'lcham uchun eng kamida 3 ta, maksimal 5 ta sub-indikator tanlanadi, bu esa modelni elastik va turli auditorlik holatlariga moslashuvchan qiladi (3-jadvalga qarang).

Shunday qilib, to'rt o'lchamli xavf indeksining struktura modeli audit obyektini ko'p jihatdan baholab, unga mos, modullashtirilgan va aniqlashtirilgan audit dasturini shakllantirishga imkon yaratadi. Bu esa ichki auditni umumiy ko'rinishdagi tekshiruv emas, balki boshqaruvga ta'sir ko'rsatuvchi, muammoga yo'naltirilgan va strategik yondashuvga ega faoliyatga aylantiradi.

2024-yil Pensiya jamg'armasining bir nechta tuman bo'limlarida amalga oshirilgan auditlar asosida shakllantirilgan tahlil modeli amalda o'zini to'liq oqladi. Jumladan, Yakkasaroy, Shayxontohur, Mirzo Ulug'bek va Yashnobod tumanlarida o'tkazilgan auditlar xavf darajasi bo'yicha oldindan modellashtirildi va audit dasturlari har bir tumanning profiliga mos modullardan tashkil etildi.

Ichki audit yakunida beriladigan tavsiyalar tashkilotning moliyaviy, tashkiliy va huquqiy faoliyatini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ko'pgina davlat tashkilotlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tavsiyalar amalda yetarlicha izchil bajarilmaydi, ba'zida esa ular butunlay e'tiborsiz qoldiriladi. Ayniqsa, tavsiyaning ijrosini doimiy monitoring qilish mexanizmlarining yo'qligi yoki yetarli darajada ishlamasligi natijasida, tavsiyalar real o'zgarishlarga olib kelmasdan, hujjatlarda rasman "bajarildi" deb qayd etilib qolmoqda.

Bunday vaziyatlarda tavsiyalarning haqiqiy bajarilishini aniqlash uchun oddiy "bajarilgan/bajarilmagan" yondashuvi yetarli emas. Shu sababli ichki audit amaliyotida tavsiyalar monitoringi tizimli, bosqichma-bosqich, natijaviylikni baholovchi indikatorlar asosida tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv tavsiyaning faqat shakliy bajarilganligini emas, balki uni hayotga tatbiq qilishdagi harakat, jarayon va yakuniy ta'sir darajasini ham o'lchash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, 3 bosqichli nazorat indikatoriga asoslangan model - "Action-Progress-Impact" konsepsiyasi - tavsiyalar monitoringi uchun dolzarb metodologik yechim sifatida e'tirof etiladi.

Ichki audit jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bu - berilgan tavsiyalarning real hayotda qanday bajarilayotganini monitoring qilishdir. Amaliyotda ko'p hollarda tavsiya qabul qilinganidan so'ng uning bajarilishi faqat bayonnomalarda qayd etiladi, lekin mazmunan u amalda to'liq yoki sifatli ijro etilmaydi. Shu bois audit tavsiyalarining ijrosini baholash uchun tizimli va ko'p bosqichli yondashuv zarur. Ana shunday yondashuvlardan biri sifatida "Action-Progress-Impact" (API) modeli ishlab chiqildi. Bu

model tavsiyalarining ijrosini uchta ketma-ket indikator asosida baholash imkonini beradi: Harakat (Action), Jarayon (Progress) va Ta'sir (Impact).

API modelining birinchi komponenti - Action - bu tavsiya asosida real harakatlarning boshlanganini aniqlovchi indikator bo'lib, auditor tavsiya berganidan so'ng ushbu tavsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbir rejasi ishlab chiqilganmi, tasdiqlanganmi va ijroga yo'naltirilganmi - shularni aniqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi komponent - Progress - bu tavsiyaning amalda qanday bajarilayotganini va qanday natijalar berayotganini o'lchaydi.

Uchinchi komponent - Impact - bu tavsiyaning yakuniy ta'siri va audit obyekting faoliyatiga olib kelgan ijobiy o'zgarishlar darajasini aniqlashga qaratilgan.

Modelni amaliy baholash uchun quyidagi formula asosida umumiy API ko'rsatkichi hisoblab chiqildi:


$$API = (A \times 0.3) + (P \times 0.4) + (I \times 0.3) \quad (1)$$

Bu yerda:

**A (Action)** - tavsiyaning rasman qabul qilingani (0 yoki 1);

**P (Progress)** - tavsiyaning bajarilish jarayonidagi progress foizi (0 dan 1 gacha);

**I (Impact)** - tavsiyaning tashkilot faoliyatiga real ta'siri (0 dan 1 gacha) (3-rasm).



**3-rasm. Tavsiya bo'yicha API ko'rsatkichlari<sup>10</sup>**

Ichki audit faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri bu - audit natijalarining hisobot shaklida to'g'ri va shaffof bayon etilishidir. Hisobot - bu audit jarayonining yakuniy mahsuli bo'lib, unda tekshiruv obyekti, aniqlangan muammolar, asosiy faktlar, tavsiyalar va ularning ijrosi uchun javobgarlik chizig'i aniq ko'rsatilishi lozim. Aynan shaffoflik orqali hisobotlar

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

boshqaruv organlari uchun ishonchli axborot manbaiga, audit xizmatlari uchun esa professional yondashuv mezoniga aylanadi.

Amaliy tajribada ichki audit hisobotlarining shaffofligi yetarli darajada ta'minlanmayotgani kuzatilmoqda. Jumladan, 2023-2024-yillarda Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlarida o'tkazilgan 27 ta ichki audit tadbirining 15 tasida hisobotlarda faktlar noaniq bayon etilgan, dalillar manbasi ko'rsatilmagan yoki tavsiyalar umumiy iboralar bilan cheklangan. Masalan, Yakkasaroy tumanidagi 2024-yil 1-yarim yillik audit hisobotida "ko'rsatilgan ortiqcha to'lovlar aniqlangan" deb yozilgan, biroq ushbu to'lovlarning soni, ishtirokchilari va hujjatlashtirilgan manbalari keltirilmagan. Bunday holat, bir tomondan, tavsiyalarni amalda ijro etishni qiyinlashtiradi, ikkinchi tomondan esa audit xizmatining professional imidjiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ichki audit hisobotlarini tayyorlashda yagona format, dalillarni hujjatlar bilan tasdiqlash va tavsiyalarni aniq muddat, mas'ul va kutilyotgan natija bilan ifodalash zarur. Shu yo'sinda ichki audit hisobotlari faqat rasmiy hujjat emas, balki boshqaruvning tahliliy va qaror qabul qiluvchi vositasiga aylanishi mumkin.

#### 4-jadval

##### Action–Progress–Impact (API) modeli bo'yicha ichki audit tavsiyalarini baholash<sup>11</sup>

Tavsiya raqami	Tavsiyaning qisqacha mazmuni	Action (A)	Progress (P)	Impact (I)	API kursoratichi	Baholash darajasi
1	Ikkilamchi to'lovlar bo'yicha tartibni optimallashtirish	1	0.7	0.6	0.76	Yuqori
2	Qayta hisoblash algoritmini takomillashtirish	1	0.4	0.3	0.55	O'rtacha
3	Malaka oshirish tizimini joriy etish	1	0.3	0.2	0.48	O'rtacha
4	Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish	0	0.0	0.0	0.00	Bajarilmagan
5	Elektron monitoring tizimini joriy etish	1	0.9	0.8	0.90	Juda yuqori
6	Ishchi guruhlarini hududiy muvofiqlashtirish	1	0.6	0.5	0.69	Yuqori
7	Fuqarolar murojaatlarini elektronlashtirish	1	0.5	0.4	0.62	Yuqori

(Tadqiqot obyektlari bo'yicha)

Misol uchun, Yakkasaroy tumanida "ikkilamchi pensiya to'lovlari bo'yicha to'lov tartibini optimallashtirish" tavsiyasi bo'yicha quyidagi natijalar kuzatildi: tavsiya rasman tasdiqlangan (A=1), bajarilish darajasi 70% (P=0.7), ta'sir esa 0.6 deb baholangan, chunki ushbu tavsiya natijasida 438 mln so'mlik ortiqcha to'lov bartaraf etilgan. Shu asosida API ko'rsatkichi quyidagicha hisoblandi:

$$API = (1 \times 0.3) + (0.7 \times 0.4) + (0.6 \times 0.3) = 0.76$$

Bu yuqori ko'rsatkich bo'lib, tavsiyaning nafaqat qabul qilingani, balki amalida bajarilishi va real foyda keltirganini bildiradi. Boshqa bir holatda, Uchtepa tumanida "qayta hisoblash algoritmini takomillashtirish" tavsiyasi uchun A=1, P=0.4 (jarayon boshlangani, lekin to'liq emas), I=0.3 (hali sezilarli ta'sir kuzatilmagan) holat qayd etildi.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

$API = 0.3 + 0.16 + 0.09 = 0.55$  ko'rsatkichni berdi, bu esa tavsiyaning hali to'liq ijobiy natija bermaganini anglatadi.

API qiymatiga qarab baholash darajalari quyidagicha belgilanadi: 0.80-1.00 - juda yuqori, 0.60-0.79 - yuqori, 0.40-0.59 - o'rtacha, 0.01-0.39 - past, 0 – bajarilmagan (4-jadvalga qarang).

Ichki audit hisobotlarida shaffoflikni ta'minlash uchun nafaqat shakl va mazmunga oid standartlar, balki audit faoliyati davomida aniqlangan holatlarni dalillar bilan isbotlashga xizmat qiluvchi amaliy yondashuvlar ham zarur.

Birinchi navbatda, audit dalillarini to'plashda hujjatga asoslanganlik prinsipini mustahkamlash orqali audit hisobotlariga raqamlar, sana va manbalar aniq kiritilishi ta'minlandi. Misol uchun, Shayxontohur tumanidagi 4-chorak auditida pensiya tayinlash bo'yicha 56 ta holat hujjat raqamlariga havola qilgan holda bayon etilgan va bu hisobot rahbariyat tomonidan 5 kun ichida ko'rib chiqilib, qaror qabul qilingan.

Ikkinchi takomillashgan mexanizm - elektron hujjat almashinuvi va raqamli reyestrda asoslangan dalillash tizimi joriy etilishi bo'ldi. Uchtepa tumanida "Avtomatlashtirilgan audit dalillari bazasi" orqali har bir aniqlangan xatolik elektron shaklda tasdiqlandi, bu esa hisobot tuzish vaqtini 28% ga qisqartirishga olib keldi.

Uchinchi jihat - hisobotlarni standartlashtirilgan tuzilma asosida tayyorlash orqali barcha hisobotlarda yakuniy xulosa, tavsiya va uni bajarish muddatlari alohida ajratilgan bo'limda keltirilmoqda. Bu audit natijalarini tezda anglash va qaror qabul qilishda yuqori samaradorlikni ta'minladi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab holatlarda tavsiyalar rasmiy hujjatlarda qayd etilgan bo'lsa-da, ularning ijrosi yuzasidan real o'zgarishlar kuzatilmaydi. Masalan, Pensiya jamg'armasining 2023-2024-yillardagi 21 ta audit tadbirida berilgan 86 tavsiyaning 53 tasi chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan bo'lsa-da, faqat 19 tasi orqali aniq ijtimoiy yoki moliyaviy natijaga erishilgan. Qolgan tavsiyalar qog'ozda bajarilgan deb hisoblangan, biroq ularning ta'siri statistik yoki sifat ko'rsatkichlarida aks etmagan.

Tavsiyalar samaradorligini baholash quyidagi asosiy zaruriyatlarga javob beradi: birinchidan, audit xizmatining baholanishi ob'ektiv ko'rsatkichlarga asoslanadi; ikkinchidan, tavsiyaning natijasi bo'yicha qaror qabul qiluvchi rahbariyatda to'liq tasavvur shakllanadi; uchinchidan, auditorlar tomonidan kelajakdagi takliflar ishlab chiqishda samarali va foydali yondashuvlar aniqlanadi.

Mazkur baholashni amalga oshirishda ijro darajasi, muddatga rioya qilish, natijadorlik va qaytuvchanlik kabi mezonlar asos qilib olinadi. Ijro darajasi tavsiyaning amalda qanday bajarilganligini, ya'ni audit asosida belgilangan chora-tadbirlarning qamrovini ifodalaydi. Muddatga rioya qilish esa tavsiyaning belgilangan vaqt doirasida amalga oshirilganligini baholab, kechikishlar holatida samaradorlikka salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida ko'riladi. Natijadorlik mezoni tavsiyaning moliyaviy iqtisod, boshqaruv soddalashuvi yoki ijtimoiy ta'sir ko'rinishidagi aniq foyda keltirishini o'lchaydi. Qaytuvchanlik (replikatsiya) esa tavsiyaning boshqa hududlarda ham muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkinligini

ko'rsatadi. Ushbu mezonlar tavsiyaning nafaqat formal bajarilganligini, balki uning real ijtimoiy-moliyaviy qiymatini aniqlashga yordam beradi.

Tavsiyalar samaradorligini baholashda tizimli va raqamli yondashuvlar orqali ularning boshqaruv qarorlariga qanday ta'sir qilganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Audit xulosalarining real natijalarga aylanishi ko'p hollarda tavsiyaning qanday tuzilganligi, ijro mexanizmlarining aniq belgilanganligi va natijadagi foydaning o'lchanishi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, "Taklif - Ijro - Natija" (TIN) modeli ichki audit doirasida tavsiyalar samaradorligini baholovchi amaliy tizim sifatida taklif etiladi. Mazkur model uchta asosiy komponentdan iborat bo'lib, har biri aniq vazn koeffitsienti asosida baholanadi: taklif sifati (T) - 0.3, ijro darajasi (I) - 0.3 va natijadorlik (N) - 0.4.

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, T1 tavsiyasi eng yuqori samaradorlikka ega bo'lib, 0.93 bahoga ega bo'ldi, bu esa u orqali boshqaruvda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini anglatadi. Ushbu tavsiya asosida 438 million so'mlik ortiqcha pensiya to'lovlarining oldi olindi, bu nafaqat moliyaviy foyda, balki tizimli islohotga olib keldi. T2 tavsiyasi esa ma'lumotlarni skanlash tartibini takomillashtirgan bo'lsa-da, natijaviy ta'siri yetarlicha yuqori emasligi sababli o'rtacha samaradorlik darajasida baholandi. T3 tavsiyasi esa hujjatlarda ko'p takrorlanayotgan tavsiyalardan biri bo'lib, u ijro etilgan bo'lsa-da, aniq natija berilmagani sababli past samarali deb topildi (5-jadval).

5-jadval

**“Taklif - Ijro - Natija” modeli asosida tavsiyalar samaradorligini baholash<sup>12</sup>**  
(2024-yil misolida)

Tavsiya kodi	Tavsiya mazmuni	Taklif sifati (T)	Ijro darajasi (I)	Natijadorlik (N)	Hisoblash formulasi	TIN ko'rsatkichi
T1	Pensiya dublikatlarini elektron reyestr orqali aniqlash	1.0	0.9	0.9	$(1.0 \times 0.3) + (0.9 \times 0.3) + (0.9 \times 0.4) = 0.3 + 0.27 + 0.36$	0.93
T2	Fuqaroning ish stajini tasdiqlovchi hujjatlarni skanlash	0.8	0.6	0.4	$(0.8 \times 0.3) + (0.6 \times 0.3) + (0.4 \times 0.4) = 0.24 + 0.18 + 0.16$	0.58
T3	Nazorat arizalari bo'yicha birlamchi tekshiruvni kuchaytirish	0.7	0.5	0.2	$(0.7 \times 0.3) + (0.5 \times 0.3) + (0.2 \times 0.4) = 0.21 + 0.15 + 0.08$	0.44

Hisobot sifati bir nechta o'lchanadigan mezonlar orqali baholanishi mumkin bo'lib, ularning har biri hujjatning qiymatini oshiradi yoki pasaytiradi.

Birinchi ko'rsatkich - aniqlik. Har bir aniqlangan holat, tavsiya va xulosa dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Misol uchun, Shayxontohur tumanida tayyorlangan 2024-yil 1-chorak hisoboti yuqori aniqlikka ega bo'lib, unda ortiqcha

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tuzilgan  
22

pensiya to'lovlari bo'yicha har bir holat hujjat raqami, miqdori va javobgar shaxslar bilan ko'rsatilgan. Bu esa rahbariyat uchun tezkor qarorlar qabul qilishni osonlashtirgan.

Ikkinchi ko'rsatkich - strukturaning izchilligi. Har bir bo'lim maqsad, metod, topilmalar, xulosa va tavsiyalar zanjiri asosida mantiqiy tartibda joylashtirilgan bo'lishi zarur. Ushbu izchillik bo'lmagan holatlarda, masalan, Uchtepa tumanidagi 2023-yil 4-chorak hisobotida tavsiyalar oldin keltirilgan, ammo ularning nima asosda berilgani keyingi sahifalarda noaniq bayon etilgan.

Uchinchi ko'rsatkich - til va uslubi aniqlik. Hisobot tili rasmiy, obyektiv va baholovchisiz bo'lishi lozim. Subyektiv jumlar, masalan "tizim yaxshi ishlaymadi" kabi iboralar hisobotning ishonchliligiga putur yetkazadi.

To'rtinchi ko'rsatkich - tavsiyalarni o'lchash imkoniyati. Tavsiya faqat umumiy ifoda bo'lib qolmasdan, u aniq muddat, natija va javobgarlik mezonlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Misol uchun, "Fuqarolarga tayinlangan pensiyalar bo'yicha elektron nazorat mexanizmini joriy etish, 15 kun ichida tegishli buyruq ishlab chiqish va 3 oyda amaliyotga joriy qilish" kabi ifoda o'lchash imkoniyatini beradi.

Beshinchi ko'rsatkich - vizual qulaylik. Jadval, diagramma va grafiklar bilan boyitilgan hisobotlar oddiy matnga nisbatan ko'proq tushuncha beradi. Amaliyotda bu uslub kam qo'llanilmoqda. Faqat ayrim tumanlarda (masalan, Chilonzor) grafikalar asosida ortiqcha to'lovlar taqqoslovi keltirilgan bo'lib, bu rahbariyatda muammoni anglash tezligini oshirgan.

Integratsiyalashgan KPI tizimi ichki audit tavsiyalarining real natijadorligini o'lchashda samarali vosita bo'lib, u orqali tashkilotlar tavsiyaning faqat rasmiy qabul qilinganligini emas, balki uning ijrosi va ta'sirini ham baholaydi. Ushbu tizim 2024-yil birinchi yarmida sinov tariqasida Shayxontohur, Uchtepa va Yakkasaroy tumanlaridagi Pensiya jamg'armasi bo'limlarida joriy etildi. Har bir tuman kesimida asosiy audit tavsiyalari tanlab olinib, ular bo'yicha KPI ko'rsatkichlari hisoblandi. Bu baholash nafaqat tavsiyalarni ustuvorlashtirishga, balki ularning boshqaruv tizimiga ta'sirini baholashga imkon berdi.

Ushbu monitoring natijalariga ko'ra, har bir tumanda tavsiyalarning o'rtacha KPI baholari, yuqori va past samarali tavsiyalar soni aniqlanib, ularning asosida tegishli boshqaruv qarorlari ishlab chiqildi (6-jadval).

**6-jadval**

**2024-yilda ichki audit tavsiyalarining KPI tahlili (hududlar kesimida)<sup>13</sup>**

Tuman	Ko'rib chiqilgan tavsiyalar soni	O'rtacha KPI qiymati	KPI $\geq 0.80$ (Yuqori samarador)	KPI $< 0.50$ (Past samarador)	Eng samarali tavsiya raqami
Shayxontohur	6	0.68	2	1	T1
Uchtepa	7	0.74	3	0	T4
Yakkasaroy	5	0.59	1	2	T2

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, Uchtepa tumani bo‘yicha eng yuqori natijaga erishilgan bo‘lib, bu yerda tavsiyalar ijrosi nafaqat sifatli tashkil etilgan, balki ularning natijalari ham ijobiy bo‘lgan. Ayniqsa, T4 tavsiyasi (ikki marta to‘lovlarni aniqlash bo‘yicha tahlil) 0.82 KPI bahosi bilan yuqori samaradorlik ko‘rsatgan. Shayxontohur tumanida esa o‘rtacha KPI qiymati 0.68 bo‘lib, T1 tavsiyasi elektron reestr joriy etilishi orqali 22% ortiqcha to‘lovning oldi olingan va bu orqali eng samarali tavsiya sifatida e‘tirof etilgan.

Boshqa tomondan, Yakkasaroy tumanida KPI ko‘rsatkichi pastroq (0.59) bo‘lib, bu hududda tavsiyalar bo‘yicha resurs yetishmovchiligi, ijrodagi kechikishlar va monitoring mexanizmlarining sustligi kuzatilgan. Xususan, T5 va T7 tavsiyalarida  $KPI < 0.5$  bo‘lganligi sababli ular bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zarurligi aniqlangan.

Ichki audit hisobotlarining natijadorligini oshirish uchun zaruriy yondashuv - bu ularning shakliy to‘liqligidan ko‘ra funksional va strategik ahamiyatini kuchaytirishdir. Hisobotlarni real boshqaruv vositasiga aylantirish uchun, birinchi navbatda, ularning strukturasi va mazmuni takomillashtirilishi lozim. Mazkur yondashuvda har bir audit topilmasi asosida aniq tavsiya, bajarilish mexanizmi, kutilayotgan natija va baholash mezonlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Aynan shu yondashuv hisoboti rasmiy hujjat emas, balki boshqaruvga ta’sir qiluvchi vosita sifatida shakllantiradi. Amaliyotda samaradorlikni oshirish uchun quyidagi mexanizmlar keng tatbiq etilishi mumkin. Birinchidan, “Ijro kartasi” (Action Card) joriy etilishi - bu har bir tavsiyaning bajarilishi uchun mas’ul shaxs, muddat va bajarilishi natijasini ko‘rsatib turadigan aniq jadval shaklidagi hujjatdir. Ikkinchidan, “Tavsiyalar monitoring jadvali” - bu tavsiyalarning bajarilish holati, foizli ko‘rsatkichda, bosqichma-bosqich yuritiladigan nazorat vositasi bo‘lib, auditorlar va rahbariyat uchun real ijro holatini doimiy kuzatib borish imkonini yaratadi. Uchinchidan, “Baholash indikatorlari tizimi” - bu har bir tavsiyaning natijaviy ta’siri qanday ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanishini belgilab beradi.

Shuningdek, “Audit tavsiyalari reytingi” joriy etilishi lozim. Bu tizimda barcha tavsiyalar “foydali”, “takomillashtirishga muhtoj” yoki “takroriy va umumiy” guruhlariga ajratiladi. Bu yondashuv orqali auditorlar samarali tavsiyalar ishlab chiqishda o‘z faoliyatini tahlil qilishi, rahbariyat esa qaysi tavsiyalarga ustuvor e‘tibor qaratish lozimligini aniqlashi mumkin bo‘ladi.

Yakkasaroy tumanida 2024-yilda berilgan 5 ta tavsiya bo‘yicha aynan shunday tizim qo‘llanildi. Har bir tavsiya uchun Action Card tayyorlandi, ijro monitoringi raqamli jadvalda yuritildi va natijalar rahbariyatga muntazam yetkazildi. Natijada 3 oy ichida ortiqcha pensiya to‘lovlari 17 foizga kamaydi, audit bo‘limining takliflari asosida yangi texnik hujjatlar aylanmasi ishlab chiqildi. Bu esa audit tavsiyalarining real boshqaruv vositasiga aylanganini ko‘rsatadi.

Hisobotlarning natijadorligini oshirish, ular asosida real ijtimoiy va moliyaviy o‘zgarishlarga erishishni ta’minlovchi amaliy yondashuvlar joriy etilishiga bog‘liq. Tavsiyalarni aniq, baholanadigan va kuzatiladigan tarzda shakllantirish orqali ichki audit boshqaruv islohotlarining ajralmas bo‘lagi sifatida faoliyat yuritadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ichki audit hisoboti standartlari asosan milliy yondashuv asosida shakllangan bo‘lib, ba’zi hollarda xalqaro mezonlardan



chetga chiqiladi. Masalan, Ichki audit milliy standartlarida hisobot mazmuniga doir bandlar mavjud bo'lsada, ularda sabab-ta'sir tahlili yoki tavsiyaning ijtimoiy-moliyaviy qiymatini baholash mezonlari to'liq ochib berilmagan. Natijada audit hisobotlari ko'pincha faqat aniqlangan xatoliklar ro'yxatidan iborat bo'lib, tavsiyalar esa umumiy tusda ifodalanadi.

Xalqaro standartlar bu borada yuqori darajada aniqlik, ob'ektivlik va foydalanuvchi uchun qulaylik talab qiladi. Shu bois, xalqaro audit standartlari dolzarbligi bevosita ichki auditning sifatini oshirish, audit natijalarining strategik ahamiyatga ega bo'lishi va boshqaruv tizimida chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash bilan belgilanadi. Mazkur standartlarni bosqichma-bosqich milliy amaliyotga moslashtirish orqali ichki audit xizmatlari ishonchliligi va professionalligi sezilarli darajada oshiriladi.

Xalqaro standartlarda belgilangan audit hisobot formati ichki audit sifatini oshirishda muhim omil bo'lib, uni milliy amaliyotga moslashtirish orqali O'zbekistondagi davlat sektorida audit tizimining funksional imkoniyatlari kengayadi. Milliy tashkilotlarning o'ziga xosligi, normativ-huquqiy bazasi va resurs imkoniyatlari hisobga olingan holda, xalqaro andozalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash emas, balki ularni adaptatsiya qilish - eng maqbul yondashuvdir. Aynan shuning uchun, xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan **“Holat-Mezon-Sabab-Ta'sir-Tavsiya-Ijro”** modeliga asoslangan hisobot formati taklif etiladi. Bu model INTOSAI va IIA talablari bilan uyg'unlashgan holda, audit topilmasini tizimli tarzda yoritish imkonini beradi (7-jadval).

**7-jadval**

**Xalqaro mezonlar asosida milliy amaliyotga moslashtirilgan hisobot shakli<sup>14</sup>**

Bo'lim	Mazmuni	Izoh
Audit obyekti	Tekshiruv qilingan tashkilot, davr, faoliyat sohasi	Masalan, “Yakkasaroy tumani Pensiya jamg'armasi, 2024-yil I-yarim yillik”
Audit maqsadi	Auditdan kutilayotgan natija va aniqlanishi lozim bo'lgan jihatlar	“Ortiqcha to'lovlar va byudjet intizomining buzilishi bo'yicha audit”
Holat (Fakt)	Aniqlangan muammo yoki kamchilik	“Pensiya tayinlashda 3 ta holatda to'lovlar takroran amalga oshirilgan”
Mezon	Holatga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy asos	“Iqtisodiyot va moliya vazirligi (63-sonli) qo'llanmasining 4.5-bandiga zid”
Sabab	Kamchilik yuzaga kelishiga olib kelgan ichki sabablar	“Ma'lumotlar bazasining yangilanmasligi va insoniy xatoliklar”
Ta'sir (Risk)	Moliyaviy, boshqaruv yoki ijtimoiy oqibatlar	“438 mln so'm byudjet mablag'lari ortiqcha to'langan”
Tavsiya	Muammoni bartaraf etish uchun aniq chora	“Pensiya to'lovlarini integratsiyalashgan reestr orqali nazorat qilish”
Javobgar shaxs	Tavsiyani bajarish uchun mas'ul ijrochi	“Tuman jamg'arma buxgalteriyasi va AT bo'limi”
Ijro muddati	Tavsiya bajarilishi kerak bo'lgan aniq vaqt	“2024-yil 15-oktabrgacha”
Monitoring mezoni	Tavsiyaning bajarilishi ustidan kuzatuv shakli va mezoni	“Tavsiya bajarilganda qayta to'lovlar 0 ga teng bo'lishi kerak”

<sup>14</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Mazkur jadval nafaqat hisobotning strukturasi va izchilligini ta'minlaydi, balki har bir audit topilmasi uchun mas'uliyatni aniqlashtiradi va samaradorlikni baholash imkonini beradi. Bu yondashuv joriy etilganidan so'ng, Toshkent shahri Pensiya jamg'armasining 4 ta tuman bo'limida 2024-yil II-yarim yilligida tuzilgan hisobotlarda ijro intizomi 1,8 barobarga oshgan, audit tavsiyalarining 64 foizi 3 oy ichida amaliyotga joriy qilingan.

Xalqaro miqyosda audit sohasini tartibga soluvchi eng muhim tashkilotlar - INTOSAI, IIA va COSO bo'lib, ularning standartlari ichki audit faoliyatining institutsional, metodologik va axloqiy mezonlarini belgilab beradi. Masalan, INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI standartlari (International Standards of Supreme Audit Institutions) audit prinsiplarini, huquqiy va etika talablarini, shuningdek auditni rejalashtirish, o'tkazish va hisobot yozish bosqichlarini batafsil tartibga soladi. ISSAI 100 - "Public Sector Auditingning Asosiy Tamoyillari" standarti davlat sektorida auditning mustaqilligi, dalillarga asoslanganlik, aniqlik va manfaatdorlik tamoyillarini asos qilib oladi.

Xalqaro audit standartlarini davlat sektorida to'liq va samarali joriy etish uchun ularni mahalliy huquqiy, institutsional va tashkiliy sharoitlarga moslashtirilgan holda amalga oshirish zarur. Xalqaro standartlarni bevosita tatbiq etish emas, balki bosqichma-bosqich, funksional moslashtirish yondashuvi orqali joriy etish eng maqbul yo'nalish hisoblanadi.

Joriy etishning birinchi bosqichi - diagnostika va tahlil bosqichi bo'lib, unda mavjud audit amaliyoti xalqaro standartlar mezonlari bilan solishtiriladi. Xususan, audit hisobotlari mazmuni, tavsiyalar sifati, audit dasturlarining riskka asoslanganligi, axborot tizimlarining integratsiya darajasi, tavsiyalar ijrosini nazorat qilish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Mazkur bosqichda kamchiliklar aniqlanadi va ular asosida o'zgarishga ehtiyoj mavjud yo'nalishlar belgilanadi.

Ikkinchi bosqich - moslashtirilgan metodologiyani ishlab chiqish bosqichidir. Bu bosqichda xalqaro standartlarning konseptual tamoyillari - mustaqillik, xolislik, dalillarga asoslanganlik, monitoring, nazorat muhiti va riskga asoslangan yondashuvlar - milliy tizimning tashkiliy strukturasi, me'yoriy hujjatlari va moliyaviy amaliyotiga moslashtiriladi.

Uchinchi bosqich - pilot loyihalarni sinovdan o'tkazish bosqichidir. Bu bosqichda tanlangan davlat tashkilotlari yoki tuman/jamoat darajasidagi pensiya jamg'armalari auditorlik xizmatlarida yangi yondashuvlar tajriba tariqasida joriy qilinadi. Masalan, hisobotlar ISSAI 1700 talablari asosida shakllantiriladi, tavsiyalar ijrosi API modeli asosida monitoring qilinadi va audit natijasi KPI ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

To'rtinchi bosqich - institutsional integratsiya va rasmiylashtirish bosqichi bo'lib, bunda ishlab chiqilgan yangi audit yondashuvlari qonunchilik hujjatlari bilan mustahkamlanadi. Auditorlarning malakasini oshirish, metodik qo'llanmalarni yaratish, axborot tizimlarining yangilanishi va audit xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bu esa ichki auditni faqat nazorat qiluvchi emas, balki strategik maslahat beruvchi institutga aylantiradi.

## XULOSA

1. Davlat sektorida ichki audit tizimi endilikda nazorat mexanizmidan strategik boshqaruv institutiga aylangan bo'lib, u moliyaviy intizom, shaffoflik va samaradorlikni ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Ichki auditning mohiyati uning mustaqil maqomi, boshqaruv qarorlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati va moliyaviy boshqaruvdagi barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ichki auditning institutsional asoslari davlat boshqaruvining sifatli islohotlari va ijtimoiy javobgarlik tamoyillari bilan uyg'unlashib, uni davlat boshqaruvining strategik bo'g'iniga aylantiradi.

2. Ichki auditning funksional bazasi uch asosiy yo'nalish – nazorat, tahlil va maslahat faoliyatlari asosida shakllanadi. Nazorat funksiyasi byudjet mablag'larining qonuniy sarflanishini ta'minlasa, tahlil funksiyasi resurslardan foydalanish samaradorligini baholaydi, maslahat funksiyasi esa rahbariyatga strategik qarorlar qabul qilishda tahliliy asos yaratadi. Ushbu kompleks yondashuv ichki auditni faqat tekshiruvchi emas, balki boshqaruvni takomillashtiruvchi vosita sifatida belgilaydi. Shu tariqa, audit faoliyati davlat tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligi va boshqaruv samaradorligini oshirishda bevosita ta'sir ko'rsatadigan mexanizmga aylanadi.

3. Ichki auditning zamonaviy modelida monitoring, profilaktika va rivojlantirish funksiyalari o'zaro uyg'unlashgan holda amal qiladi. Monitoring funksiyasi orqali tavsiyalar ijrosi kuzatilib, profilaktika funksiyasi xatolik va qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratiladi, rivojlantirish funksiyasi esa tashkilotning strategik rivojlanish yo'nalishlarini shakllantiradi. Bunday uch funksiyali yondashuv ichki auditni reaktiv tizimdan proaktiv tizimga o'tkazadi, ya'ni u muammolarni aniqlovchi emas, balki ularni bartaraf etuvchi va takomillashtiruvchi institutga aylanadi. Natijada, davlat boshqaruvi tizimida barqarorlik, shaffoflik va ishonchlilik darajasi sezilarli oshadi.

4. “Aloqa va hisobdorlik chizig'i” metodologiyasi ichki auditning tashkiliy va institutsional mustaqilligini kafolatlovchi innovatsion model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodologiya auditorlik xizmatining rahbariyat bilan strategik muloqotini saqlagan holda, boshqa bo'limlardan ma'lumot olishda mustaqilligini ta'minlaydi. Bu model auditorning faoliyatini ikki asosiy chiziq – “aloqa” va “hisobdorlik” orqali tartibga soladi, natijada axborot oqimlari aniq belgilangan, hisobdorlik mexanizmlari esa shaffof tizimga aylanadi. Mazkur yondashuv ichki auditni IIA va INTOSAI standartlariga mos ravishda professional, mustaqil va natijador faoliyat yurituvchi institut sifatida shakllantiradi.

5. Davlat sektorida ichki auditni rejalashtirishda to'rt o'lchamli xavf segmentatsiyasi modeli – huquqiy, moliyaviy, resursiy va tashkiliy xavflarni qamrab oluvchi metodologik yondashuv – ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu model orqali auditorlik tekshiruvlari eng yuqori xavfga ega sohalarga yo'naltiriladi, bu esa audit resurslaridan oqilona foydalanish, aniqlikni oshirish va risklarni samarali boshqarish imkonini beradi. Xavf segmentatsiyasi orqali audit ustuvorliklari ilmiy asosda belgilanadi, shuningdek, tekshiruvlarning natijaviyligi va boshqaruv

qarorlarining sifat darajasi oshadi. Shu tariqa, model ichki auditni strategik boshqaruv vositasiga aylantiradi.

6. Ichki audit samaradorligini baholash indikatorlari tizimi audit faoliyatining natijadorligini ob'ektiv o'lchash imkonini beruvchi ilmiy-metodik asosdir. Ushbu tizim jarayon, natija, foydalanuvchi va strategik ta'sir yo'nalishlariga ajratilib, har bir indikator og'irlik koeffitsiyentlari asosida baholanadi. Natijada, audit samaradorlik reytingi (ASR) shakllanib, ichki audit faoliyati miqdoriy va sifat jihatdan baholanadi. Bu yondashuv auditni raqamli, tahliliy va natijaviy mezonlar asosida baholashga imkon yaratadi, shu orqali audit xizmati strategik maslahat markazi sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

7. Ichki auditning milliy va xalqaro me'yoriy uyg'unligi uning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. O'zbekistonda ichki audit tizimi IIA, INTOSAI va COSO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tamoyillarni milliy qonunchilikka integratsiya qilgan holda rivojlanmoqda. Ushbu uyg'unlik milliy audit amaliyotida mustaqillik, axloqiylik, ob'ektivlik, riskga asoslangan yondashuv va hisobdorlik kabi professional standartlarning chuqur joriy etilishini ta'minlaydi. Natijada, davlat moliyaviy boshqaruvi tizimi xalqaro mezonlarga yaqinlashadi, bu esa moliyaviy shaffoflik va investitsion jozibadorlikni oshiradi.

8. Davlat sektorida ichki audit tizimi bugungi kunda faqat moliyaviy nazorat vositasi emas, balki ijtimoiy javobgarlik, ochiqlik va ishonchlilikni ta'minlovchi strategik boshqaruv institutiga aylangan. Ichki audit hisobotlari orqali rahbariyat qarorlarining ilmiy asoslanishi, resurslardan tejamkor foydalanish va korrupsion xavflarning kamaytirilishi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, audit faoliyati fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshirib, ijtimoiy samaradorlikni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Demak, ichki audit tizimi davlat boshqaruvi sifatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda markaziy o'rin egallaydi.

9. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat sektorida ichki audit jarayonini tizimlashtirish, uni bosqichma-bosqich algoritmik model asosida tashkil etish audit samaradorligi va boshqaruv qarorlarining aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Audit jarayonining har bir bosqichi - rejalashtirish, tahlil, ma'lumot yig'ish, xulosa berish va monitoring - o'zaro uzviy bog'langan yagona tizimni tashkil etib, bu yondashuv auditni nafaqat nazorat vositasi, balki strategik boshqaruv mexanizmi sifatida shakllantiradi.

10. Tadqiqotda ishlab chiqilgan xavfga asoslangan ko'p parametrlilik indeks yondashuvi va to'rt o'lchamli xavf modeli (huquqiy, moliyaviy, resursiy va tashkiliy) ichki auditni subyektiv qarorlardan xoli qilib, obyektiv baholash tizimini joriy etadi. Bu yondashuv audit resurslarini ustuvor sohalarga yo'naltirish, tavakkalchilikni strategik boshqarish va davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/10.12.2019.I.16.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**САИТМУРАТОВ САИТМУРАТ МАШАРИП УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ПЛАНИРОВАНИЯ И  
ПРОВЕДЕНИЯ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В ГОСУДАРСТВЕННОМ  
СЕКТОРЕ**

**08.00.08 - Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Ташкент - 2025**

**Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) зарегистрирована ВАК под номером B2025.2.PhD/Iqt5493.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-сайте Учёного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и в образовательной информационной сети «ZiyoNet» ([ziyonet.uz](http://ziyonet.uz))

**Научный руководитель:**

**Маматкулов Муроджон Шукурович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Максудов Бегматжон Юлдашалиевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Аликулов Абдимумин Исмамович**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Андижанское сельское хозяйство и  
агротехнологии институт**

Защита диссертации состоится « 2 » 12 2025 года в 16<sup>00</sup> на заседании научного совета DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученой степени при Ташкентском государственном экономическом университете в городе Ташкенте. Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер \_\_\_\_\_). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации был разослан 17.11 2025 года.

(протокол реестра 102 от 17.11 2025 года).



**С.У. Мехмонов**

Председатель научного совета по  
присуждению ученой степени, д.э.н.  
профессор

**У.В. Гафуров**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
наук, профессор

**С.К. Худойкулов**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ ( аннотация диссертации доктора философии )**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировой экономике совершенствование процессов планирования и проведения внутреннего аудита в государственном секторе имеет важное значение для повышения эффективности финансового контроля, рационального использования государственных средств и обеспечения прозрачности. Разработка аудиторских планов на основе риск-ориентированных подходов, оценка системы внутреннего контроля и автоматизация аудиторских процедур с применением цифровых технологий усиливают подотчётность и результативность в государственном секторе. Наряду с этим анализ результатов аудита и их использование при принятии управленческих решений создают возможности для оптимизации распределения ресурсов и эффективной реализации социально-экономических реформ. По данным международных исследований, “совершенствование внутреннего аудита в государственном секторе является важным фактором обеспечения прозрачности государственного управления и общественного доверия”<sup>1</sup>. Исходя из этого, совершенствование процессов внутреннего аудита в государственном секторе проявляется как гарантия устойчивого развития и эффективного управления в мировой экономике.

На мировом уровне приоритетные направления исследований, направленных на совершенствование процессов планирования и проведения внутреннего аудита в государственном секторе, в первую очередь ориентированы на обеспечение эффективного использования государственных средств и повышение подотчётности. В научных изысканиях особое внимание уделяется разработке аудиторских планов, основанных на оценке рисков, оценке систем внутреннего контроля, а также автоматизации аудиторских процессов с применением цифровых технологий. Кроме того, исследования направлены на внедрение инновационных решений, таких как блокчейн и искусственный интеллект, с целью повышения эффективности аудита, использование анализа данных в режиме реального времени при мониторинге деятельности государственных органов и усиление общественного контроля. В зарубежной практике особое значение придаётся роли внутреннего аудита в государственном секторе в обеспечении прозрачности, эффективности и общественного доверия, а также его гармонизации с международными стандартами, что рассматривается как одно из приоритетных направлений исследований.

В целях совершенствования процессов планирования и проведения внутреннего аудита в государственном секторе Узбекистана поставленные задачи, прежде всего, направлены на обеспечение финансовой прозрачности и подотчётности, а также на эффективное использование государственных ресурсов. В данном направлении были усовершенствованы правовые и организационные основы внутреннего аудита, внедрена система разработки аудиторских планов, основанных на оценке рисков, и расширена практика

---

<sup>1</sup> OECD, Internal Audit in the Public Sector: A Comparative Analysis, OECD Publishing, Paris, 2020. DOI: <https://doi.org/10.1787/26c21f80-en>



оценки механизмов внутреннего контроля в государственных органах. Особое внимание уделено внедрению цифровых технологий и автоматизации аудиторских процессов, что повысило эффективность анализа данных и создало условия для широкого применения современных инструментов в государственном финансовом управлении. Кроме того, в результате разработки национальных руководств, гармонизированных с требованиями международных стандартов (INTOSAI и COSO), появилась возможность повышения качества процессов внутреннего аудита и более активного использования их результатов при принятии управленческих решений. В условиях Узбекистана значение внутреннего аудита, прежде всего, объясняется необходимостью борьбы с коррупцией, повышения подотчётности и ответственности в системе государственного управления. В настоящее время растёт потребность в цифровизации и автоматизации процессов внутреннего аудита, а также в повышении эффективности внедрения рекомендаций, вытекающих из его результатов. Поэтому совершенствование порядка проведения внутренних аудиторских мероприятий выступает не только научно-методологической задачей, но и одной из актуальных экономических и социальных потребностей современного этапа развития страны.

